



Innovative Academy  
Research Support Center



AMIR TEMUR

BECK ADMIRABLE  
COURAGE & COURAGEOUSNESS  
STRENGTH IN JUSTICE  
1398-1405

**ZAMONAVIY DUNYODA  
IJTIMOIY FANLAR:  
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR  
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI**

zenodo



INTERNET  
ARCHIVE

OpenAIRE



**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI  
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY DUNYODA IJTIMOIIY FANLAR:  
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI  
№ 21-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN  
KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

OpenAIRE



OPEN ACCESS

zenodo

INTERNET  
ARCHIVE

[in-academy.uz](http://in-academy.uz)

**«ZAMONAVIY DUNYODA IJTIMOIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI № 21-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.IN-ACADEMY.UZ VEB SAYTI)

«ZAMONAVIY DUNYODA IJTIMOIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'OLON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. SOTSILOGIYA
2. FALSAFA FANLARI
3. TARIX (TURLARI BO'YICHA)
4. IJTIMOIIY FANLAR (TURLARI BO'YICHA)

**ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.**

## ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR THE ILLEGAL CIRCULATION OF STRONG INFLUENCER OR TOXIC SUBSTANCES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN (ACCORDING TO THE CRIMINAL CODES OF THE UZBEKISTAN SSR OF 1926 AND 1959)

Khaydarov Mirsaid Mirdjabbarovich

Independent student of the Academy of the Ministry of Internal Affairs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7022450>

**Abstract.** The article analyzes the issues of responsibility provided for in the criminal law of the Uzbekistan SSR of 1926 and 1959 for the illegal introduction of strong influencer or toxic substances into circulation.

**Keywords:** Uzbekistan SSR, public health, strong influencer substance , toxic substance, illegal preparation, aggravating crime, criminal liability.

The level of health of the population is an important indicator of the state of development of the country and is one of the main factors of the development of the society. The health of the people and the stability of the nation's gene pool are the great wealth of this country [1]. In turn, protection of human health is a strategic task in the consistent development of the country.

For this reason, every country considers health protection of its population as a priority, and determines responsibility for any act that harms a person's life and health.

It is known from history that as a result of the national-territorial demarcation of the Union of Soviet Socialist Republics, the Soviet Socialist Republic of Uzbekistan was established on October 27, 1924, and in 1926 On June 16, the first Criminal Code of the republic was adopted, in which a separate chapter was provided for actions that harm social relations that ensure the health of the population.

In particular, in Article 250 of the eighth chapter of this criminal law, entitled "Violation of the rules of public health, public safety and public order", preparation, storage, purchase and sale of poisonous substances with a strong effect without a special permit, as well as a strong effect for committing Liability is determined for violating the rules of processing, storage, distribution, accounting and transportation of toxic substances [2].

The difference between this norm and Article 215 of the Criminal Code of the Russian Soviet Federative Socialist Republic adopted on June 1, 1922 (preparation of strong and poisonous substances by unauthorized persons) is that strong poisonous substances are included as actions of the objective side of the crime. preparation by a person who does not have the right to do so, as well

as violation of the rules of its storage, purchase and sale, as well as processing, storage, distribution, accounting and transportation.

In addition, if the sanction of Article 215 of the Criminal Law of 1922 provides for a fine of up to 300 rubles or compulsory works, then the first Criminal Code of the Uzbek SSR provides for more severe, i.e., confiscation of poisonous substances with a strong effect for such persons. , was sentenced to imprisonment for up to five years.

Later, on May 21, 1959, the second Criminal Code of the Uzbek SSR was adopted, and in Article 216 of the Criminal Code of 1926, a socially dangerous act, that is, the illegal preparation, purchase, for the purpose of selling strong and poisonous substances assumed liability for receipt, storage, transportation or shipment or sale [3].

This norm included two independent crimes and consisted of two parts. In particular, in the first part of the norm, the illegal preparation, purchase, storage, transportation or sending of powerful or poisonous substances that are not considered narcotic substances, as well as for the illegal sale of such substances, and the production of such substances in the second part , was further improved upon the Criminal Code of 1926, providing for liability for contravention of the provisions relating to purchase, keeping, accounting, giving, conveyance or dispatch. For example, it was determined that strong influencer or toxic substances, which are intended as the subject of a crime, should not be considered narcotics.

Also, the condition that the actions provided for in part 1 of the norm were committed for the purpose of sale was provided as a qualifying sign of the act. In part 2 of the norm, the actions of the objective side of the crime have been expanded, and responsibility has been established for the violation of the rules of illegal transportation or shipment of such substances, as well as sale, purchase or shipment.

At the same time, Article 216<sup>1</sup> of this Code stipulates responsibility for robbery of powerful or poisonous substances that are not considered narcotics, and includes the aggravating elements of the crime and the necessary quantitative indicators of the subject of the crime. The Criminal Code of 1926 did not establish liability for such acts.

In addition, Article 216 of the Criminal Code of 1959 had a number of differences from the current Article 251<sup>1</sup> of the Criminal Code. In particular, the current Criminal Code Article 251<sup>1</sup>:

— if the purpose of transferring strong influencer or toxic substances is determined, the Criminal Code of 1959 provided only the existence of an intention to sell as a qualifying feature;

— the criminal code of 1959 did not establish responsibility for the actions of preparing, receiving, storing, transporting, sending or transferring equipment for processing, preparation for the purpose of transfer or processing, which is considered as an objective aspect of the crime;

— if the aggravating elements of the crime were defined, it was not provided for in the Criminal Code of 1959;

— as the main condition for the occurrence of liability for violation of the rules for the production, acquisition, storage, accounting, giving, transportation or shipment of strong influencer or toxic substances, the existence of a consequence, that is, the violation of the established rules leads to the theft of substances behind carelessness, or serious the 1959 Crimes Act does not require consequences if it is intended to cause harm, but it has been found that a violation of the rules for the manufacture, purchase, storage, accounting, transportation or dispatch of such substances is sufficient.

In conclusion, it should be noted that strong or toxic substances have been in the center of constant control as they pose a serious threat to public health. For this reason, specific criminal charges have been established for illegal handling of these types of substances in different periods, and as a result of changes in time and situation, new methods of committing crimes and the emergence of new types of substances, issues of criminal responsibility have been improved.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madiyeva R. Strengthening the health of the population and the gene pool of the nation is the main task. Electronic resource. Access: <https://yuz.uz/news/aholi-salomatligi-va-millat-genofondini-mustahkamlash--asosiy-vazifa> (application date: 18.08.2022).
2. The Criminal Code of the Uzbek Soviet Socialist Republic. - T.: Printing house of the Directorate of Affairs of the USSR Council of Ministers, 1930. P. 108.
3. Criminal Code of the Uzbek SSR: S ism. i dop. na 1 Oct 1988 / sost. G. Abdumadjidov. - T.: Uzbekistan, 1988. P. 157-158.

## TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Davronova Mohigul Norpo'lat qizi

Qarshi shahar 15-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7023182>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda innovatsion usullardan samarali foydalanish haqida so'z boradi. Muallif pedagogik ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va tarix fanini o'qitishda innovatsion usullardan samarali foydalanish bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarni o'rgangan.

**Kalit so'zlar:** tarix, raqamli tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiymetodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlararo aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. O'quv fanlararo aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv

fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi.

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallarini umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. "Didora-Doro I. qadimgi Fors shoxi"). "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi. Agarda o'quvchiga

mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin:

Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. O'quvchida qiziqish bo'lmasa, har qanday metod, usulni qo'llamang samara berishi qiyin.

Men tarix darslarida o'zim yaratgan qiziqarli boshqotirmalardan iborat "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinidan samarali foydalanishga harakat qilaman.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yini quyidagicha o'tkaziladi:

Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo'lgan sanalari, statsitik ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulida (amallarni noodatiy usullarda hisoblash) shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma'lum son izohlanadi.

Tarix darslarida o'quvchilarning matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini mavzuni mustahkamlash va takrorlash vaqtida o'quvchilar yoki guruhlar bilan ishlashda qo'llanishi maqsadga muvofiq.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur.

Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni kelajakga yetkizishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B.

3. Toshev, S. O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixini o'rganishda turk tilidagi manbalarni o'rni. // Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari T., 2020. b. 121-127.
4. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta'lim. -2020.- № 1 (86). — S.5.
5. Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма «Логос», 1993. – 181 с.
6. Фурсенко А.А. Комплексная модернизация образования как механизм обеспечения инновационного развития социально — экономической сферы // Юридический журнал. — 2008. — № 7 (39). — С.4.
7. J. Slater, The Politics of History Teaching: A Humanity Dehumanized. (Special Professorial Lecture). London: Institute of Education, University of London. - 1989 - S. 8.
8. Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. М.: Просвещение, 1968. - 431 с.
9. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. М.: Владос, 2000. - 240 с.
10. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
11. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil

## **SURROGAT ONALIK SHARTNOMASINING HUQUQIY TABIATI (TEZIS)**

**Jamshid Abdullayev**

**Jamoat xavfsizligi universiteti**

**mustaqil izlanuvchisi,**

**“Adliya a’lochisi”.**

**Email:jamshidb003fb@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7026902>**

Jamiyat hayotining eng muhim masalasi bu – oila farovonligi hisoblanadi. Oila va fuqarolik huquqidagi eng aktual va murakkabligi bilan birga, muammoli masalalardan biri sifatida qayd qilinadigan jihat surrogat onalik shartnomalarining qonuniyligi masalasini hal qilishdir. Surrogat onalik shartnomasi amaliyoti AQSh, Rossiya, Markaziy Osiyo va dunyoning turli mamlakatlarida ham nazariy, ham amaliy jihatdan asta-sekin maqbul bo’lib bormoqda<sup>1</sup>. Ayni paytda yuqoridagi manbadan ko’rinib turibdiki, surrogat onalik shartnomasi masalasini nazariy hamda amaliy jihatlarini kishilik jamiyatida huquqiy yechimlarini berish dolzarflik kasb etmoqda. Negaki, kundalik hayotda tartibga solinmagan surrogat onalik bilan bog’liq muammoli ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yetarlicha uchraydi.

Bilamizki, amaldagi milliy qonunchilikda shartnoma taraflar o’rtasida yuzaga keladigan turli xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradigan huquqiy shakl hisoblanadi. Shartnomada amalga oshirilishi mumkin bo’lgan harakatlar chegaralari, shuningdek, shartnoma taraflari tomonidan bajarilmaganlik oqibatlari ko’rsatilishi kerak. Amaliyotda bugun shartnoma taraflarning xatti-harakatlarini tartibga solishning eng qulay shakllaridan biri sanaladi. Buning asosiy sababi shundaki, huquqiy sohada taraflar har qanday shartlar bo’yicha kelishib olishlari va maxsus kelishilgan natijani talab qilishlari mumkin. Shartnomalarni huquqiy tartibga solish ularni tuzish va taraflar tomonidan o’z majburiyatlarini bajarish tartibida, shuningdek, bunday majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikda namoyon bo’ladi. Shu sababli, surrogat onalik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini ifodalash maqsadida shartnomaning qonuniy ravishda tuzilishi tomonlarning huquqlari kafolati bo’lib xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib, bolaning tug’ilishi uchun surrogat ona va genetik ota-onaga o’rtasidagi surrogat onalik to’g’risidagi shartnoma fuqarolik qonunchiligida bevosita va to’liq mustahkamlanmagan. Shu munosabat bilan, surrogat onalik

<sup>1</sup> Sarah Mortazavi, It Takes a Village to Make a Child: Creating Guidelines for International Surrogacy, 100 GEO. L.J. 2249, 2250 (2012).

to'g'risidagi shartnoma fuqarolik shartnomasining qaysi turiga tegishli ekanligi haqida savol vujudga keladi. Dunyoning katta qism davlatlarida oilaviy huquq sohasi bilan bog'liq qonunlar qabul qilingani sababli bunday muammoli ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga duch kelinmaydi. Avvalo shartnoma masalasida xorijiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: "Shartnoma mazmuni uning taraflari tomonidan kelishilgan, kontragentlarining (*lot. contrahens – fuqarolik huquqiy munosabatlarida shartnoma tuzuvchi taraf*) huquq va majburiyatlari mustahkamlangan, shartnoma majburiyati mazmunini tashkil etuvchi shartlar majmuidir."<sup>2</sup> Xorijiy mamlakatlarning ayrimlarida shartnomaning mazkur xususiyatlaridan kelib chiqib, surrogat onalik shartnomasi tuziladi.

Biroq, surrogat onalik shartnomasi amaliyotining tan olinishi va uning axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga oid qizg'in global munozaralar ko'pchilik mamlakatlarning yurisdiksiyalarida bu masala bo'yicha huquqiy jimlikni ta'kidlaydi. Lekin mazkur masala bo'yicha huquqiy jimlik amaliyotda surrogat onalik dasturining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmaydi. Aksincha, surrogat onalik bilan bog'liq bir qancha muammoli ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakat olimlarining fikrlariga tayanib shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd qilingan huquqiy sukunat(jimlik) ba'zi davlatlarda noaniqlik manbai bo'lib, ushbu mamlakatlarda yashovchi va surrogat onalik amaliyoti ota-ona bo'lishning oxirgi imkoniyatlaridan biri bo'lganlar uchun sog'lom oila sifatida yashash imkoniyatini to'sib qo'yadigan ko'plab axloqiy va huquqiy qiyinchiliklar majmui sanaladi.

Natijada, ushbu huquqiy qiyinchiliklar bilan bog'liq nizolar qayta-qayta ushbu mamlakatlar sudlariga murojaat qilinishiga sabab bo'ladi. Ammo, afsuski sudlar surrogat onalik amaliyoti bilan bog'liq nizoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun izchil va keng qamrovli normativ-huquqiy hujjatlar va ta'sir choralari bilan ta'minlanmagan.

Xorij tajribasida mavjud umumiy yurisdiksiya qonunlarini tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatadiki, eng keng tarqalgan munosabat surrogat onalik amaliyotiga butunlay e'tibor bermaslik siyosatidir. Masalan tadqiqotchi N.I.Askarov mazkur holatni quyidagicha ta'riflaydi: "O'rganish davomida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatuvchi klinikalar ham mazkur xizmatni taklif etayotganligi ma'lum bo'ldi. Misol uchun, "Shahnozabonu fayz" yoki "Doktor D" nomli klinikalar tomonidan

<sup>2</sup> Note, Surrogate Motherhood: The Outer Limits of Protected Conduct, Detroit College of Law Review 1981: 1131 [hereinafter referred to as Outer Limits]; Griffin.

to'g'ridan-to'g'ri surrogat onalik xizmati ko'rsatilmasada, biroq fuqarolarga mazkur soha bo'yicha maslahatlar berish yo'lga qo'yilgan.”<sup>3</sup>

Surrogat onalik dasturi jarayonida nizoli vaziyatning vujudga kelinishi bilan surrogat onalik shartnomasining qonuniyligi va taraflarning shartnoma shartlarini talab darajasida bajarilishini ta'minlash masalalarida har bir alohida holat bo'yicha taraflar sud hokimiyatiga murojaat qilishadi. Natijada mazkur nizolarning yechimi sud hokimiyati ixtiyoriga beriladi.

Bizningcha, surrogat onalik bilan bog'liq tadqiqotimizning asosiy maqsadi ayni paytda dolzarb ijtimoiy-huquqiy ehtiyoj kasb etayotgan va amalda hali qonunchiligimizda ko'rib chiqilmagan surrogat onalik shartnomasini to'liq e'tirof etish muhimligini ilmiy jamoatchilikka yetkazishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, amaldagi huquqiy normalarni aniqlash uchun yuzaga keladigan munosabatlarning mohiyatini tasniflash kerak.

Surrogat onalik shartnomasi oilaviy va fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinishi mumkin bo'lgan shartlarni o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, surrogat onalik shartnomasi garchi o'z mohiyatiga ko'ra xizmat ko'rsatish shartnomasiga yaqin bo'lsa-da, ammo o'zining xususiyatidan kelib chiqib mustaqil bo'lib, O'zbekiston Fuqarolik kodeksi normalariga kiritilmagan shartnoma xarakteriga ega nomlanmagan(notipik) shartnoma turi hisoblanadi.

Surrogat onalik shartnomasi mavjud bo'lgan ko'plab mamlakatlarda uning shakli ko'rsatilmagan, chunki surrogat onalik shartnomasi alohida, mustaqil shartnoma turi sifatida tasniflanmagan. Amalda bizningcha, surrogat onalik shartnomasini notarial tasdiqlangan yozma shaklda tuzish oqilona va to'g'ri maqbul yechim hisoblanadi.

Surrogat onalik shartnomasining majburiy yozma shaklini qonuniylashtirish zarurati shundan dalolat beradiki, shartnoma ham shaxsiy, ham maxfiy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari surrogat onalik shartnomasi taraflarning shartnoma doirasida qo'shimcha majburiyatlarini ham keltirib chiqaradi. Fizkrimizcha, agar shartnoma shartlari yozma ravishda tasdiqlanmagan bo'lsa, taraflar og'zaki ravishda biron bir shart bo'yicha kelishuvning yo'qligi bilan bog'liq muammoli vaziyatga duch kelishi ehtimoli juda yuqori hisoblanadi.

Bundan tashqari, taraflar notarial tasdiqlangan yozma bitim tuzmasalar, taraflar qabul qilinadigan xizmatlar ko'lami, ularning mazmuni va boshqalar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasliklari xavfi ham paydo bo'ladi. Amaliyotda surrogat onalik to'g'risida yozma shartnomaning yo'qligi taraflarga xizmatlar ko'lami, ularning bir-biri oldida mavjud huquq va majburiyatlari, shartnomaning

<sup>3</sup> Askarov N.I. Nomlanmagan shartnomalarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy muammolari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati / T., 2020 . 19-bet

tugatish shartlari, shuningdek, turli tartib-qoidalarni amalga oshirish bilan bog'liq ko'plab shartlar va omillarni batafsil ko'rsatishga imkon bermaydi. Bu o'rinda bizningcha, masalaga yechim sifatida surrogat onalik shartnomasining notarial tasdiqlangan shaklini taraflarga taqdim etish zarurati mutlaqo asoslidir. Yana bir jihat fikrimizcha, surrogat onalik shartnomasining notarial tasdiqlanishi taraflarning aniq haqiqiy irodasini aniqlash hamda jamiyatda oila institutini mustahkamligini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ushbu kelishuv taraflarini aniqlash surrogat onalik shartnomasining asosiy qadami hisoblanadi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu borada ikki xil qarash mavjud.

Birinchi nazariyaga ko'ra, surrogat onalik shartnomasida ikki tomon ishtirok etadi. Surrogat onalik to'g'risidagi shartnoma ko'p jihatdan xizmatlar uchun haq to'lash shartnomasiga o'xshash bo'lganligi sababli, surrogat ona ushbu shartnoma bo'yicha ijrochi etib tayinlanadi va genetik ota-ona xizmatlarning mijozi yohud buyurtmachi hisoblanadi.

Boshqa nazariyaga ko'ra<sup>4</sup>, surrogat ona va genetik ota-onadan tashqari, surrogat onalik shartnomasi uchinchi shaxs - tibbiyot tashkilotini ham o'z ichiga oladi. Mutaxassis olimlarning fikri bilan aytganda, tibbiyot tashkilotinining ishtirokisiz surrogat onalik to'g'risidagi shartnoma bo'yicha taraflarning majburiyatlari tegishli tarzda bajarilishi mumkin emas. Chunki, surrogat onalik dasturi doirasida taraflarni tibbiyot nuqtai nazaridan tekshirish o'tkazish zarurati va majburiyati, shuningdek, yordamchi reproduktiv texnologiyalarni joriy etish ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotida amalga oshirilishi lozimligini qonuniy jihatdan mustahkamlanishi lozim.

Ko'pgina mazkur soha mutaxassislari surrogat ona va genetik ota-onalar o'rtasida ikki tomonlama surrogat onalik shartnomasini tuzishni qat'iy tavsiya qiladilar. Ular muvaffaqiyatli surrogat onalik kursi, surrogat dastur natijasi asosan sifatli va malakali surrogat onalik shartnomasiga bog'liq, deb hisoblashadi. Bu masalada bizning fikrimizcha, shartnomaning barcha tafsilotlari qanchalik to'liq bo'lsa, tomonlarning o'z huquqlarini suiiste'mol qilish ehtimoli kamroq bo'ladi. Bundan tashqari, yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llash tartibi, ulardan foydalanishni taqiqlash va ulardan foydalanishni cheklash turmush o'rtoqlar va surrogat ona yozma ravishda xabardor qilinganligini va ularning bu shartlarni qabul qilishi ularning surrogatlik dasturida ishtirok etishga roziligini bildiradi.

---

<sup>4</sup> Асламурзаева А. Суррогатное материнство: пробелы законодательства / А. Асламурзаева // ЭЖ-Юрист. – 2011. – № 30. – С. 8

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, surrogat onalik shartnomasini tuzishda birinchi qadam tomonlarni tegishli tartibda to'liq huquq va majburiyatlari dan xabardor qilish hisoblanadi. Keyingi bosqichlarda taraflar tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va yuqorida ta'kidlab o'tilgan tibbiyot tashkilot tomonidan taqdim etilgan turli bayonnomalarga imzo qo'yish, surrogat onalar va bo'lajak ota-onalar tomonidan tibbiyot ko'rigidan o'tkazish, keyingi bosqichga rozilik berish kabi shartlar to'g'ri bajariladi. Shundan keyin boshqa har qanday fuqarolik-huquqiy shartnomani tuzishda bo'lgani kabi, taraflar surrogat onalik shartnomasining shartlarini kelishib olishlari, imzolashlari, shuningdek, ushbu shartnoma bo'yicha o'zlariga berilgan barcha majburiyatlarini tegishli tartibda bajarishlari kerak.

**Xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlash lozim:**

**birinchidan** surrogat onalik shartnomasida qonuniy talablar yo'qligi sababli ko'plab suiiste'molliklar ham surrogat ona, ham genetik ota-onalar tomonidan sodir etiladi. Shu munosabat bilan surrogat onalik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, ularga rioya qilmaslik uchun javobgarlik masalalarini aniq tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

**Ikkinchidan**, surrogat onalik dasturi ko'plab tabiiy xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, birinchi navbatda, surrogat onalik shartnomasida shartnoma taraflarini qonuniy kafolatlangan huquqlarini himoya qilish lozim.

**Uchinchidan**, bizningcha surrogat onalik shartnomasi bilan surrogat onalik dasturini amalga oshirishda eng asosiysi sharti va mahsuli bo'lgan hali dunyoga kelmagan bolani huquqiy himoya qilish maqsad qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sara Mortazavi, Farzand uchun hayot: Xalqaro surrogatlik bo'yicha ko'rsatmalar yaratish, 100 GEO. L.J. 2249, 2250 (2012).
2. Note, Surrogate Motherhood: The Outer Limits of Protected Conduct, Detroit College of Law Review 1981: 1131 [hereinafter referred to as Outer Limits]; Griffin.
3. Askarov N.I. Nomlanmagan shartnomalarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy muammolari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati / T., 2020 . 19-bet
4. Асламурзаева А. Суррогатное материнство: законодательства / А. Асламурзаева // ЭЖ-Юрист. – 2011. – № 30. – С. 8
5. Пестрикова А.А. Проблемы договора о суррогатном материнстве / А.А. Пестрикова // Гражданское право. – 2006. – № 2. – С. 14-17.

## EMOTSIYA, STRESS, VA SOG'LIQ

Avezov Olmos Ravshanovich<sup>1</sup>

dotsenti

[olmosavezov85@gmail.com](mailto:olmosavezov85@gmail.com)

Shavkatova Shaxnoza Po'lot qizi<sup>2</sup>

Pedagogika fakulteti talabasi

[shahnozashavkatova20@gmail.com](mailto:shahnozashavkatova20@gmail.com)

<sup>1</sup>Buxoro davlat Pedagogika instituti

<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7030988>

### ANNOTATSIYA

Maqolada his-tuyg'ularning inson fiziologiyasiga ta'siri va buning natijasida kelib chiqadigan ijobiy va salbiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan. Kundalik hayotimizda yo'l qo'yadigan xatolarimiz natijasida vujudga keluvchi stressli vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari hissiyot nazariyalari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsiya, stress, qo'rquv, g'azab, quvonch, qayg'u, talamus

**Kirish:** His-tuyg'ular hayotingizga rang qo'shishini va stress vaqtida ular hayotingizni buzishi yoki uni saqlab qolishi mumkinligini aytishi kerak. Biz ko'pincha qo'rquv, g'azab, qayg'u, quvonch va sevgini ifodalaymiz va bu psixologik holatlar ko'pincha jismoniy reaksiyalarga olib keladi. Muhim uchrashuvdan asabiylashamiz. Omma oldida gapirganda, biz tez-tez hojatxonaga boramiz. Oila a'zosi bilan janjal tufayli boshimiz ikkiga bo'linadi. Tuyg'ularni yengib o'tgan vaqtingizni eslay olasizmi? "Biz yig'laganimiz uchun afsusdamiz, zarba berganimiz uchun g'azablanamiz, titrayotganimizdan qo'rqamiz" ushbu g'oya Jeyms-Lanj nazariyasi deb ataladi.

### Asosiy qism

1900-yillarning boshlarida Uilyam Jeyms va Karl Lanj tomonidan ilgari surilgan Jeyms-Lanj nazariyasi ta'sirchan, ammo bahsli bo'lgan hissiyotlar nazariyasi edi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bizning his-tuyg'ularimiz tanadagi jismoniy o'zgarishlardan iborat. (Masalan, asabiylashganingizda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan his-tuyg'ularni o'ylab ko'ring, masalan, yuragingiz tez urishi va oshqozoningizda "kapalaklarni" his qilish - Jeymsning so'zlariga ko'ra, bizning hissiy tajribalarimiz shu kabi fiziologik hislardan iborat.)

Kannonning ta'kidlashicha, ko'plab omillar bizning fiziologik holatimizga ta'sir qiladi, ammo hissiy javob bermaydi. Masalan, isitma, qon shakarining pastligi yoki sovuq havoda tashqarida bo'lish hissiyotlar kabi ba'zi tana o'zgarishlarini keltirib chiqarishi mumkin (masalan, yurak urishi tezlashishi). Biroq, bunday


stsenariylar odatda kuchli his-tuyg'ularni keltirib chiqarmaydi. Agar bizning fiziologik tizimlarimiz his-tuyg'ularni his qilmasdan faollashishi mumkin bo'lsa, dedi Kannon, biz his-tuyg'ularni his qilganimizda fiziologik faollashuvdan tashqari yana bir narsa sodir bo'lishi kerak. Kannonning fikriga ko'ra, hissiy reaksiyalar va tanadagi fiziologik o'zgarishlar hissiy stimullarga javoban sodir bo'ladi, ammo bu ikkisi alohida jarayonlardir. Kannon o'z tadqiqotida miyaning qaysi qismi hissiy reaksiyalar uchun javobgar ekanligini aniqlashga harakat qildi va u miyaning bir mintaqasi bizning hissiy javoblarimizda ayniqsa ishtirok etadi degan xulosaga keldi: talamus . Talamus miyaning periferik asab tizimi (miya va orqa miya tashqarisidagi asab tizimining qismlari) va miya yarim korteksi (ma'lumotni qayta ishlashda ishtirok etadigan) bilan bog'langan miya hududidir.

Cannon-Bard nazariyasi va hissiyotning boshqa nazariyalari

Tuyg'ularning yana bir asosiy nazariyasi 1960-yillarda ishlab chiqilgan Shaxter-Singer nazariyasidir . Shaxter-Singer nazariyasi, shuningdek, turli xil his-tuyg'ular bir xil fiziologik javoblar to'plamiga ega bo'lishi mumkinligini tushuntirishga harakat qildi. Biroq, Shaxter-Singer nazariyasi, birinchi navbatda, talamusning roliga e'tibor qaratish o'rniga, odamlar atrofidagi muhitni qanday izohlashiga e'tibor qaratdi.

### **Natijalar va muhokama**

Tasavvur qiling-a, siz qo'rqinchli filmni tomosha qilyapsiz va yirtqich hayvonning kamera tomon sakraganini ko'rasiz. Kannonning so'zlariga ko'ra, bu ma'lumot (yirtqich hayvonni ko'rish va eshitish) talamusga uzatiladi. Keyin talamus hissiy javob (qo'rquv hissi) va fiziologik javob (masalan, tez yurak urishi va terlash) hosil qiladi. Endi tasavvur qiling-a, siz qo'rqib ketganingizga yo'l qo'ymaslikka harakat qilyapsiz. Masalan, siz o'zingizga bu shunchaki kino va yirtqich hayvon shunchaki maxsus effektlar mahsuli ekanligini aytib, hissiy reaksiyangizni bostirishga harakat qilishingiz mumkin. Bunday holda, Kannon sizning miya yarim korteksingiz talamusning hissiy reaksiyasini bostirishga urinish uchun javobgar ekanligini aytadi.



**Xulosa:** . Qiyinchiliklarga duch kelganimizda, his-tuyg'ular diqqatimizni o'ziga qaratadi va harakatlarimizga kuch beradi. Yuragimiz tez-tez uradi. Bizning barcha sezgilarimiz hushyor holatda bo'ladi. Kutilmagan yangiliklarni olgach, ko'zimiz yoshlanishi mumkin. Biz qo'llarimizni ko'tarib g'alaba qozonamiz, biz jo'shqinlik va yangi ishonchni his qilamiz. Shuningdek biz doimo ijobiy hislarni boshdan kechirmaymiz. Salbiy ehtiroslar tufayli stress kabi uzoq davom etadigan va bizning sog'lig'imizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasalliklarga yuz tutishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Braun, Teodor M. va Elizabet Fee. "Uolter Bredford Kannon: Inson his-tuyg'ularining kashshof fiziologi." Amerika jamoat salomatligi jurnali , jild. 92, yo'q. 10, 2002, 1594-1595-betlar.
2. Kannon, Valter B. "Jeyms-Lanj hissiyotlar nazariyasi: tanqidiy imtixon va muqobil nazariya". American Journal of Psychology , jild. 39, yo'q. 1/4, 1927, 106-124-betlar.
3. Gilos, Kendra. "Kennon-Bard hissiyot nazariyasini tushunish." Verywell Mind (2018 yil, 1 noyabr).
4. Keltner, Dacher, Keyt Oatli va Jennifer M. Jenkins. Tuyg'ularni tushunish. 3-nashr, Wiley, 2013.
5. Vandergriendt, Karli. "Kennon-Bardning hissiyot nazariyasi nima?" Healthline (2017 yil, 12 dekabr).
6. Mayers "Psisologiya" kitob 530-540-b
7. <https://www.healthline.com/health/cannon-bard>

8. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC1447286/>
9. <https://www.jstor.org/stable/1415404>

## ADVOKAT-SHAXSNING HUQUQIY HIMOYACHISI

Rayxon Ibragimova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7034388>

Annotatsiya. Mazkur maqolada advokat atamasining lug'aviy ma'nosi, O'zbekiston Respublikasida shaxsning manfaatlarini himoya qilishda advokatlik faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqillik, protsessual tenglik kabi jihatlar yoritildi. Demokratik qadriyatlarni ta'minlash, insonparvarlik an'alarini rivojlantirishni maqsad qilgan holda advokat mavqeini jamiyat hayotida oshirish masalasi ilmiy asosda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: advokat, prokuror, prognoz, protsessual tenglik, demokratiya.

Rivojlangan davrda yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda demokratlashtirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shuningdek, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari asosiy vazifani bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini asosiy kafolatidir. Ta'kidlash joizki, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining samarali ro'yobga chiqarilishi mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun barcha davlat muassasalari bilan bir qatorda advokatura sohasini rivojlantirish, shuningdek sud-huquq tizimida uning vakolatlarini oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Huquqni muhofaza qilish organlari rahbar xodimlari "Inson qadr-qimmati — eng oliy qadriyat" maxsus kursi bo'yicha o'qitish, sud tizimini "bir sud — bir instansiya" tamoyili asosida qayta ko'rib chiqish, "nazorat tartibida ishlarni ko'rish" amaliyotidan voz kechish, yerga bo'lgan huquqlar kafolatini kuchaytirish, odil sudlov va korrupsiya reytingini joriy etish, advokatlar rolini kuchaytirish ishlari olib boriladi." deb fikr bildirib, chiqarilgan qonun va qonun osti hujjatlari ijrosini to'liq ta'minlash, inson qadr-qimmati masalasi oliy ekanligi hamda "nazorat tartibi"ni bekor qilish bilan bir qatorda mamlakatimizda advokatlar rolini kuchaytirish ishlari olib borilishi lozim ekanligini qayd etib, advokatlar o'z vazifalariga vijdonan yondashishlari lozimligini alohida ko'rsatib berdi.

Advokat lotincha advocatus so'zidan olingan bo'lib yordamga chaqirish, yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxs degan ma'nolarni anglatadi.

Advokat kasbi antik davrga borib taqaladi. Qadimgi Rimda allaqachon advokatlar va advokatlik kasbi bilan shug'ullanuvchilarni birlashtirgan homiyalar mavjud bo'lgan. Rim imperiyasida yuridik kasbning klassik tuzilishi bizning davrimizdan oldin ham shakllangan. Ilmiy manbalarga asoslangan holda insoniyat tarixidagi eng taniqli yuristlar qatoriga Afina Antifoni (mil.avv. 479-409), Mark Tulus Sitseron (mil.avv.106-43), Fyodor Plevako (1842-1909), Jozef Jemail (1925-2015), Gugo Grotsiy (1583-1645), Anatoliy Koni (1844-1927), Gloriya Allred (1941 yilda tug'ilgan), Vladimir Spasovich (1829-1906)lar kiradi. Advokat qonunda belgilangan tartibda tegishli maqomga va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega shaxs ekanligi O'zbekistonda mavjud qonunchilikda ham belgilanganligi bois, ushbu kasb vakillari faoliyati maxsus qonun asosida mustahkamlangan hamda huquq tizimida o'z o'rniga ega hisoblanadi.

Advokat oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin ekanligi haqida O'zbekiston Respublikasining Advokatura to'g'risidagi qonunda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida advokat davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonlari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyat yuritishi davlatning huquq tizimida o'ziga xos rivojlanish bosqichini kasb etishi ma'lum. Sababi, umuminsoniy qadriyatlarni huquqiy asosga ega holda himoya qiluvchi faoliyat turi qanchalik himoyalangan va kafolatlangan bo'lsa davlatning modernizatsiyalashuvi va qonunchiligi rivoji uchun shu qadar asos paydo bo'ladi. Umumjahon huquq tizimi sinovidan o'tgan tahlillarga ko'ra advokatlik faoliyati turi huquqshunoslik sohasida qadrlanuvchi va o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi faoliyat sanaladi. Buning sababi advokat to'g'ridan to'g'ri inson omili bilan munosabatga kirishgani bois ham ilmiy, ham ruhiy ko'nikma va potensialga ega bo'lishi muhimdir.

Advokatlik faoliyatining o'ziga xos jihati advokatlar ma'lum doirada ishlash orqali faqatgina huquq tizimigina boyitish bilan cheklanishmaydi, balki butun dunyo hamjamiyatida qadrlanuvchi insoniy qarashlar tamoyilini qonuniy jihatdan asoslashga kirishishadi. Advokatlik faoliyatining huquqiy asosiga to'xtaladigan bo'lsak, jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida advokat huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzadi, huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar beradi, fuqarolik,

iqtisodiy va ma'muriy ishlar hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etadi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatadi, hakamlik sudida va xalqaro tijorat arbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshiradi, advokat qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa turdagi yuridik yordam ham ko'rsatishi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, advokatlar qonun doirasida huquq tizimida mavjud barcha sohalarida faoliyat olib borishi ta'minlangan va barcha sharoitlar yaratib berilgan. Advokatning huquq tizimidagi o'rni juda katta ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'lgani singari, O'zbekiston sharoitida advokatlarning huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari, kafolatlari, vakolatlari ham o'ziga xos tartibda belgilangan va qonuniy asosga ega hisoblanadi.

Advokatning kafolatlariga to'xtaladigan bo'lsak, advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan himoyalangan. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita va bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokat olib borayotgan faoliyati tufayli jamiyat rivoji uchun to'siq bo'luvchi huquq tizimida mavjud muammolarni o'z holicha himoya qiladi, tartibga soladi, qonun ustuvorligini ta'minlaydi, himoya organlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi hamda tahdid funksiyasini ma'lum darajada cheklashga qonuniy jihatdan erishishi kutiladi. Xalqaro standartlarga mutanosib holda advokatlarning inson hamjamiyatidagi va qonunchilik tizimidagi o'rni beqiyos hamda hurmatga sazovor sanaladi.

Yuqorida berilgan barcha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelishimiz maqsadga muvofiq:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda – advokatning o'rni nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, advokat atamasiga ta'rif, advokatlik faoliyatining davlat miqyosidagi ahamiyati, advokatning fuqarolik jamiyatda tutgan o'rni, advokatni shaxsning huquqiy himoyasini ta'minlashdagi salmoqli hissasini oshirish masalalarini atroflicha tatbiq etish lozim.

Ikkinchidan, respublikamizda advokatlik faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarini inobatga olgan holda, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda advokat faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqillik, protsessual tenglik, shaxslararo va davlat hamda fuqaro munosabatlari o'rtasida yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etishda jamiyat hayotida advokatlik mavqeini oshirish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Advokatura to'g'risida (1996-yil 27-dekabr, 349-I-son)gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida (1998-yil 25-dekabr)gi Qonuni.
4. Mirziyoyev Sh.M. Odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. 30.06.2020

## ҚАШҚАДАРЁ ВА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТЛАРИДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ

Қалқон Чоршанбиев

ҚаршиДУ талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7037722>

Аннотация: Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя давлат сиёсатининг бош йўналишларидан бирига айлантирилди. Ўзбекистонда 1993 йил 3 сентябрда “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисидаги” Қонунининг қабул қилиниши ижтимоий ҳимоя тизими ишини ривожлантиришда жуда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Қонуннинг 1-моддасида “Ўзбекистон Республикаси Фуқаролари ушбу Қонунда назарда тутилган тартибда давлат томонидан пенсия билан таъминланиши ҳуқуқига эгадирлар” деб таъкидланади.

Калит сўзлар: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисидаги” Қонуни, “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”, “Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоялаш тўғрисида”, “Фуқароларни ўз-ўзини бошқариш тўғрисида”ги қонун ҳужжатлари

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида “Давлат ўз фаолиятини инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб, ижтимоий адолат ва қонунийлик принциплари асосида амалга оширади.... Ҳар ким қариганда, меҳнат лаёқатини йўқотганда, шунингдек боқувчисидан маҳрум бўлганда ва қонунда белгиланган бошқа ҳолларда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига эга”, дейилади.

Ўзбекистонда аҳоли сонининг тез ўсиб бориши ижтимоий ҳимоялаш соҳаси ишини йўлга қўйишда жуда мураккаб ва зиддиятли масалаларни бартараф этиш заруриятини келтириб чиқарди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида аҳоли турмуш даражасини яхшилаш мақсадида давлат йўли билан бошқаришнинг янги усулларида фойдаланиб, иш ҳақи, пенсиялар, стипендия, турли нафақалар берилишида имтиёзлар жорий қилинди ва пенсиялар миқдори узлуксиз ошириб борилди. Пенсиялар, нафақалар, ижтимоий ёрдамнинг бошқа турларининг миқдори энг кам иш ҳақи миқдорида белгиланди ва 1991-1996 йиллар мобайнида энг кам иш ҳақи ва пенсиялардан солиқ олинмайдиган бўлди<sup>1</sup>.

Шу билан бирга Республикамизда чиқарилган “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”, “Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоялаш тўғрисида”, “Фуқароларни ўз-ўзини бошқариш тўғрисида”ги қонун ҳужжатлари ҳам аҳолини ижтимоий ҳимоялашга

қаратилгандир. Ушбу қонунларда барча ислоҳотлар инсон манфаати йўлида хизмат қилишга қаратилганлигини қайд этиш лозим.

1992 йил 8 январда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Пенсиялар, стипендиялар ва ноишлаб чиқариш соҳа ходимларининг лавозим маошлари миқдорини ошириш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ халқ таълими, соғлиқни сақлаш, маданият ва ижтимоий таъминот, фан, давлат муассасалари ва уй-жой коммунал хўжалиги тармоқлари ходимларининг иш ҳақи 2 баробар оширилди. Жумладан, қарилик, ногиронлик ва боқувчисини йўқотганларга тўланадиган нафақалар ҳам кўпайтирилди. Биргина, Қарши туманида 1992 йили 16385 киши нафақа олди. Шулардан 9621 таси ёши бўйича, 240 нафари Иккинчи жаҳон уруши ногиронлиги учун, 315 нафари ногиронлиги учун нафақа олди. Шунингдек, мазкур туманда қишлоқ хўжалиги касаба уюшмаси йўли билан ва меҳнат биржаси томонидан нафақа пуллари тўланди.

Ижтимоий муҳофазага сарфланаётган маблағ йилдан-йилга ортиб борди. Масалан, шу мақсадда 2 миллиард сўм сарфланган бўлса, 1996 йил бу кўрсаткич 16 миллиард сўм сарфланди<sup>1</sup>. Масалан, 1993 йилнинг биринчи чорагида республикада ижтимоий ҳимоя учун 35 млрд. сўм сарфланди. Шу йилнинг биринчи ярмида халқ таълими ва маданият ходимларига бепул хизмат кўрсатиш учун Қашқадарё вилояти маҳаллий бюджетидан 78,2 млн. сўм ажратилди. Ҳар бир туманда ижтимоий таъминот бўлимларининг махсус дастурлари ишлаб чиқилди. Дастурда ногиронлар, пенсионерларнинг моддий шароитини яхшилаш, уларга бепул дори-дармонлар етказиш учун муайян маблағлар ажратиб турилди. Бундан ташқари ўқитувчи, шифокорларнинг уйлари хусусийлаштириш борасида ҳам давлат томонидан имтиёзлар берилди.

Ижтимоий ҳимоянинг янги тизимида оила асосий мавқега эга бўлди. Шунингдек, фарзанд туғилганда, бир йўла бериладиган тўловлар сақлаб қолиниши билан бирга, нафақалар ва имтиёзлар кўпайтирилди. Айниқса, ёш болали оналар нафақалари кўпайтирилиб, унинг муддати бир ярим йилдан, икки йилга узайтирилди. Ижтимоий ҳимоя учун белгиланган маблағнинг кат-та қисми икки ёшгача фарзандини парвариш қилаётган оналарга ажратилди.

Ижтимоий нафақахўрлар сони ҳам кўпайиб борди. Масалан, Ўзбекистонда 1995 йили жами ижтимоий нафақа олувчилар 193,3 минг киши бўлса, 2004 йил 241,6 минг киши бўлди. Бу турдаги нафақаларнинг ўртача миқдори 555,5 сўмдан 12402 минг сўмга кўпайди. Демак, нафақахўрлар сонининг ортиши билан бирга нафақалар миқдори ҳам ўсиб борди. Вилоятларда

маҳаллий бюджетнинг катта қисми ижтимоий соҳа ишини яхшилаш учун ажратилди. Масалан, Қашқадарё вилоятида 1995 йил маҳаллий бюджетнинг 61,6 фоизи ижтимоий-маданий тадбирлар учун сарфланди. Ўзбекистон жанубий вилоятларида маҳаллий бюджетнинг ярмидан кўпи ижтимоий ва маданий соҳаларга сарфланиши бу борадаги ишларда ижобий натижаларнинг кўплаб қўлга киритилишига асос бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 11 ноябрда “Ўзбекистон Республикасининг ногиронларни реабилитация қилиш бўйича 1996-2000 йилларга мўлжалланган Давлат дастури тўғрисидаги” 433-сонли Қарори қабул қилинди. Жойларда қарор ижросини таъминлаш юзасидан узлуксиз тадбирлар олиб борилди.

1997 йил Қашқадарё вилояти ижтимоий таъминот бошқармаси томонидан ногиронларга 130 та ҳар-хил турдаги ногиронлар аравачалари, 180 та эшитиш аппарати, 1000 дона қўлтиқтаёқ ҳамда сиҳатгоҳларга 600 та йўлланма берилди. Ижтимоий таъминот бўлими ходимлари ногиронлар эҳтиёжини қондириш юзасидан тинимсиз ҳаракат қилдилар.

Ижтимоий таъминот бўлими ишларини яхшилаш мақсадида, соҳа ходимлари ўртасида турли танловлар ташкил этилди. Хусусан, 1997 йил Қашқадарё вилояти ижтимоий таъминот бўлими мутахассислари ўртасида “Пенсия қонунчилиги билимдони” кўрик-танлови ўтказилиб, унда Шаҳри-сабз, Ғузор, Нишон ва Деҳқонобод тумани ходимлари яхши натижаларга эришди. Аммо, Яккабоғ ва Чироқчи тумани ходимларининг билими саёз эканлиги маълум бўлди. Бу танловнинг республика босқичида Шаҳрисабз туман ижтимоий таъминот бўлими ходими Фаёзиддин Қўзиев 1-ўринни эгаллади. Соҳа ишини яхшилаш ва ривожлантириш мақсадида турли мавзуларда семинар йиғилишлари ўтказиш анъанага айланди. 1998 йил 18 майда Ўзбекистон Республикаси Ижтимоий таъминот вазирлиги, Қашқадарё вилояти ҳокимлиги, Ўзбекистон Республикаси ТМЭК (тиббий меҳнат экспертиза комиссияси) ва ТНК (тиббий ноозологик комиссия) шифокор-лари илмий жамияти, Қашқадарё вилоят ижтимоий таъминот бошқармаси ва Республика Миллий реабилитация маркази ҳамкорлигида “Қашқадарё воҳасида ногиронларни тиббий ижтимоий реабилитациясининг долзарб масалалари” мавзусида республика семинари бўлди. Семинарда Ижтимоий таъминот вазирлигининг НЭР Инспекцияси бошлиғи М.Миролимовнинг “Ўзбекистон Республикасида ногиронлик динамикаси ва бирламчи ногирон-ликни камайтиришнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги маърузасида соҳа ишини жонлаштириш юзасидан қатъий таклифлар

берилди. Бу каби тадбирлар ижтимоий ҳимоя тизимини янада мустаҳкамлашга хизмат қилди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ижтимоий ва маданий соҳалар тубдан ислоҳ қилиниб, улар фаолиятини тартибга солишнинг ҳуқуқий асослари яратилди. Аҳоли турмуш даражасини яхшилаш, маданий ҳаётини ривожлантириш юзасидан қатъий тадбирлар ишлаб чиқилиб, амалиётга татбиқ этиб борилди.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 9.
2. Ўзбекистон Республика Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари. – 1992 йил январь.-№ 1-42. – Б. 23-26.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари. 1995 йил ноябрь. -№ 424-445. – Б. 36-37.
4. Ўзбекистон Республикаси Статистика тўплами – 2004. – Тошкент, 2005. – Б. 88.
5. Мўминова Г. Ижтимоий ҳимоя- давлат йўналишининг бош йўналиши. – Қарши: Насаф, 2007. – Б. 8.
6. Саховат. 1998. -№ 4. – Б. 16.
7. Саховат.1994.- № 1.–Б.17.

## THE ROLE OF TREATIES IN THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS TREATY-MAKING PRACTICE

Sherzod Toshpulatov

LL.B., LL.M. (the Pennsylvania State University School of Law)

Third Secretary of the Treaty-Law Department of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7042346>

Firstly, it is more important to explain the sources of international law, particularly, the role of treaties in international law and the legal system and legal framework of Uzbekistan, regulating law of treaties as well as relationship between national law and international law comprehensively.

There are probably few fields of international law where confusion and clarity reign more supreme than that of the sources . The sources of international law have been codified in the Statute of the International Court of Justice . Article 38 of the Statute provides that “the Court, whose function is to decide in accordance with international law such disputes as are submitted to it, shall apply..... international conventions, whether general or particular, establishing rules expressly recognized by the contesting States;.....”.

Much of the recent international law principles related to law-making treaties are codified in the 1969 Vienna Convention on the Law of Treaties (hereafter the VCLT). The VCLT sets forth a comprehensive set of rules governing the formation, interpretation, and termination of treaties .

The VCLT defines written treaties as follows:

“.....an international agreement concluded between States in written form and governed by international law, whether embodied in a single instrument or in two or more related instruments and whatever its particular designation.”

In regard to the main elements of the treaties, the VCLT provides the basic four elements of treaties, namely (1) an international agreement; (2) concluded among states; (3) in writing; (4) governed by international law as well as it lists two potential elements – the agreement’s designation and its number of instruments (See Duncan B. Hollis, *Defining Treaties // The Oxford Guide to Treaties* 19-30 (Duncan B. Hollis ed., 2012)).

In international law the terms “monism” and “dualism” are used to describe two different theories of the relationship between international law and national law. Monists accept that the internal and international legal systems form a unity. According to them, both national legal rules and international rules that a state has accepted, for example by way of a treaty, determine whether actions are legal or illegal.

On the other hand, dualists emphasize the difference between national and international law, and require the translation (incorporation, implementation, or transformation) of the latter into the former. If a state accepts a treaty, then it is required to adapt its national law in order to conform to the treaty, otherwise the treaty will not be binding on that state and will not be a part of its legal system.

From the nature of its legal system, the Republic of Uzbekistan is considered as a dualist-theory state. Article 3 of the Law of 2019 states that “International Treaties of the Republic of Uzbekistan along with generally recognized principles and norms of international law are an integral part of the legal system of the Republic of Uzbekistan ”. It means that when Uzbekistan ratifies or accedes to any international agreement, it is required to enact implementation act in the form of law or presidential decree/resolution of the Parliament so that this international agreement can be binding on the state and can be a part of its legal system.

For example, the Republic of Uzbekistan joined the 1961 Vienna Convention on Diplomatic Relations based on the Decree of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan No. 1078-XII dated May 6, 1994 .

After gaining independence on September 1, 1991, the Republic of Uzbekistan, as a full-fledged member of international relations and foreign economic relations, has formed a legal framework for mutually beneficial cooperation with foreign partners and is developing it in areas of mutual interest.

The preamble to the Constitution of the Republic of Uzbekistan stipulates that the republic recognizes the supremacy of universally recognized rules of international law.

The Concept of Foreign Policy of Uzbekistan also determines the strengthening and improvement of the legal framework of international cooperation, the conclusion of prospective bilateral and ratification/accession to multilateral agreements as one of the political and diplomatic tools of a unified state policy.

The first normative legal act regulating the law of treaties in Uzbekistan was the Law of the Republic of Uzbekistan “On International Treaties” adopted on December 22, 1995 . Within the framework of ensuring the implementation of this law, several decisions of the Cabinet of Ministers have been adopted. With the development of law of treaties wholly, there was a need for renewal in national legislation as well. Therefore, on February 6, 2019, a new Law “On International Treaties of the Republic of Uzbekistan” (hereinafter “the Law”) was adopted .The new Law is an example of an implementation of the 1969

Vienna Convention on the Law of Treaties, to which 116 countries are parties as of April 2022 .

In order to ensure the “direct effect” of the Law, 5 normative legal documents - 2 laws and 3 other legislative documents - were merged into it.

For the first time in the Law, the rules for studying the practical importance of international agreements, legal, economic, ecological, linguistic and other types of examination of their texts were established which increased the demand for their quality.

During the past period, the practice itself shows how urgent and important it is to introduce a two-stage system of negotiating or drafting international agreements with the Ministry of Foreign Affairs in accordance with the Law.

The Law also clarified the legal status of international acts (declaration, joint statement, memorandum of understanding, etc.), and simplified the procedure for their adoption. International acts serve to ensure promptness and flexibility in the conditions of the activation of the country's international relations, and to reach preliminary agreements with the countries without delay.

As of August 2022, the legal framework of the Republic of Uzbekistan consists of more than 4,300 documents, of which about more than 500 are multilateral international agreements of universal and regional character. More than 3,800 are bilateral international documents.

Talking about the international legal framework of Uzbekistan, at this point, it is worth noting that Uzbekistan’s strategic partnership relations with neighboring and other partner countries are regulated by bilateral documents.

In particular, in recent years, relations with Turkmenistan (2017), Kyrgyzstan (2017), Turkey (2017), Tajikistan (2018), Hungary (2021), Pakistan (2021) have been raised to the level of strategic partnership, Joint Declaration on the Future Steps of Strategic Partnership with Pakistan (2022), Declaration on Eternal Friendship and Alliance with Tajikistan (2022), Declaration on Deepening Strategic Partnership and Development of Comprehensive Cooperation with Azerbaijan (2022) were signed. Moreover, international documents have been acting as a legal basis for the further strengthening of such relations with the USA, Japan, Azerbaijan, Russia, South Korea, India, China, and Kazakhstan, which previously established strategic partnership relations.

It is worth noting that within the framework of the Fourth Consultative Meeting of the Heads of States of Central Asia held on July 21, 2022 in the city of Cholponota (the Kyrgyz Republic), the Republic of Uzbekistan, the Kyrgyz Republic, the Republic of Kazakhstan, the Republic of Tajikistan, and the Republic of Tajikistan signed the Treaty establishing friendship, good

neighborliness and cooperation for the development of Central Asia in the 21st century.

Considering the above-mentioned opinions and facts, it can be supposed that treaties are the main sources of international law that form a legal basis of interstate relations and are a guarantor of their stability. The treaty-making practice of Uzbekistan has been gradually developing, particularly after the adoption of the new Law dated from 2019.

The use of legal mechanisms (creating legal norms of international law, that's, treaties) in the promotion of bilateral and multilateral cooperation, the timely resolution of problems, preventing conflicts and escalation of tensions play an important role in modern international relations.

## O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SO'ROQ GAPLAR LINGVOPOETIKASI

Yoqutjon Yoqubova

ilmiy tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7045494>

Annotatsiya. Ushbu izlanishda so'roq gaplarning ma'no turlari hamda lingvopoetik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. So'roq gaplar badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlashda hamda obraz, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishi misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, emotsiya, so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, emotsional-ekspressiv.

Аннотация. В данном исследовании обсуждаются типы значения и лингвопоэтические особенности вопросительных предложений. На примерах освещается значение вопросительных предложений в обеспечении действенности художественного произведения в раскрытии внутреннего мира героев и персонажей.

Ключевые слова: лингвопоэтика, эмоция, вопросительные предложения, риторические вопросительные предложения, эмоционально-экспрессивные.

Annotation. In this article, the types of meaning and linguopoetic features of interrogative sentences are discussed. The importance of interrogative sentences in ensuring the effectiveness of an artistic work of art and in revealing the inner world of characters is highlighted through examples.

Key words: linguopoetics, emotsion, interrogative sentences, rhetorical interrogative sentences, emotional-expressive.

Muloqot jarayonini so'roq gaplarsiz tasavvur qilish qiyin. So'zlashish, fikr almashish vaqtida, albatta, so'roq gaplarga murojaat qilinadi. So'roq gaplar noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida ma'lumot olish maqsadida ishlatiladi. Badiiy asarlarda so'roq gaplar muhim ahamiyatga ega. So'roq gaplarning turlarini o'zaro suhbatlar jarayonida ko'plab uchratishimiz mumkin. Badiiy matnda esa so'roq gaplarning barcha turlarini har xil shakllarda ko'rishimiz mumkin. Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarida ham asosiy faktik material badiiy asarlardan olinadi. Shu nuqtayi nazardan, biz ushbu izlanishimizda ilgari surilgan ilmiy nazariyalarga misollarni sevimli adibimiz O'tkir Hoshimov asarlaridan keltirdik. O'tkir Hoshimov – O'zbekiston xalq yozuvchisi. U o'zbek nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir. O'tkir Hoshimov Abdulla Qahhor nazariga tushgan va duolarini olgan yozuvchidir. U go'zal hikoya, qissa,

romanlar muallifidir. Xalqimizning ma'naviy merosiga aylangan yozuvchining asarlari kitobxonlar tomonidan sevib o'qib kelinmoqda.

Badiiy matnda gaplar, asosan, mazmun jihatdan murakkab bo'ladi. Bunda darak, so'roq, buyruq ma'nolari bilan bog'langan turli xil tuyg'ular ifodalanishi mumkin. Masalan: Imtihondan o'tdim! Ushbu jumlada imtihondan o'tganligi haqida xabar va so'zlovchining bundan xursandligini ifodalash ham bor. Bu kitobni o'qib ko'ring. Bu gapda buyruq ma'nosi bilan birga taklif, maslahat ma'nosi ham ifodalangan. Gapning ma'no turlaridan, ayniqsa, so'roq gaplar fikriy jihatdan murakkab bo'ladi. So'roq gaplar sof so'roq ma'nosi bilan birga yana boshqa semalarni ham ifodalay oladi. Quyida O'tkir Hoshimovning asarlaridan olingan turli xil semalarni ifodalovchi so'roq gaplarni ko'rib chiqamiz:

1. Buyruq semasi: Menga qarang singlim, bozorga kiraverishdagi maydonchada sotmaysizmi?
2. Sof so'roq semasi: Soatga kim tegdi?
3. Kuchli hayajon, afsuslanish semasi: Nima qilib qo'ydim, ukam!
4. Norozilik, taqiqlash semasi: Nega kulni polga tashlaysiz?
5. Taajjub, hayrat semasi: 1. Iye Toymisan? 2. Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?
6. Hayrat, buyruq semasi: 1. Uyalmaysanmi? Shunaqa degani.  
2. Nega qiynaysan bola bechorani?
8. Ta'kid, uqtirish semasi: Hech kim sizni sotib yuborayotgani yo'q-ku?
9. Ruxsat semasi: Jon singlim, bir narsa so'rasam maylimi?
10. G'azab semasi: Endi shu hunarni o'rgandingmi?

So'roq gaplar quyidagi ma'no turlariga bo'linadi:

1. Sof so'roq gaplar
  2. So'roq-buyruq gaplar
  3. Ritorik so'roq gaplar
1. Sof so'roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qiladigan so'roq gaplardir. Masalan: 1. Judayam ivib ketibsiz-ku, mehmon? ("Ko'prik")
  2. Bolalar, uning yong'oqqa tosh otganini hech kim ko'rmadimi? ("Dunyoning ishlari")
  3. Qorovul quvlasa yantoqzordan qocha olasanmi? ("Dunyoning ishlari")
  4. Eng toza tuyg'u nima? Birinchi maoshingizni keltirib berib, otangizning duosini olganingizmi? Birinchi marta sovg'a keltirib berganingizda onangizning ko'zida qalqigan yoshmi? ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar")
  5. Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho'qqalab o'tirgan cha choy quyayotgan xotiniga qarab. ("Urushning so'nggi qurboni")
  6. –Hali uxlamovmiding? ("Urushning so'nggi qurboni")

7. –Katta ada, buvim o'ldila...dedi ko'zlarini pirpiratib.

– Nima? – etim seskanib ketdi. –Nima deding? ( “ Ikki eshik orasi”)

8. Nimani qidiraysiz? ( “ Dunyoning ishlari”)

–Voy, yuzingizga nima qildi?

– O'tin tegib ketdi,– dedi onam sekingina. ( “ Dunyoning ishlari”)

Bunday so'roq gaplar shubha, taajjub kabi qo'shimcha mazmunlarga ham ega bo'la oladi. Buni jonli nutqda ohang ko'rsatadi.Masalan: Voy- bu! Shuncha odam qayoqdan kelgan? “ Dunyoning ishlari ” asaridan olingan ushbu so'roq gapda taajjub ma'nosi, “Tavba, nimaga otasi bezovta bo'lib yuribdi, yo Muxtorjonga bir nima bo'ldimikan? “ – yozuvchining “ Dard” hikoyasidan keltirilgan bu gapda esa, so'roq ma'nosi bilan birga shubha, tashvish, xavotir emotsiyalari ham ifodalangan.

2. So'roq-buyruq gaplar. Buyruq mazmunini ifodalovchi gaplar so'roq-buyruq gap hisoblanadi. So'roq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuni buyruq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuniga nisbatan mayinroq bo'ladi. Masalan: – Pochchangga salom bermaysanmi? ( O'.Hoshimov) Shaklan so'roq gap hisoblangan ushbu gap mazmunida “pochchangga salom ber” buyruq ma'nosi ham ifodalangan. – Hoy, menga qarang, xola kelingizga atlas olib qo'yamaysizmi? O'tkir Hoshimovning “ Dard” hikoyasidan olingan ushbu so'roq gapda “keliningizga atlas olib qo'ying ” buyruq ma'nosi mavjud. Hech bo'lmasa qo'shniligingni o'ylamaysanmi? “ Dunyoning ishlari ” asaridan olingan bu gapda esa, “ hech bo'lmasa qo'shniligingni o'yla ” degan mazmundagi buyruq ma'nosi bor. Menga desa otib tashlamaydimi? “ Urushning so'nggi qurboni ” hikoyasi qahramoni Shoikrom tomonidan asarda uch marta takror qo'llangan ushbu gapda “menga desa otib tashlasin ” degan qat'iy buyruq ma'nosi ifodalangan. – Siz hayotiy problemalargayam aralashasizmi yo nuqul kitob yozaverasizmi? “ Dunyoning ishlari ” asaridagi bu gapda esa, “ siz hayotiy problemalargayam aralashing” degan mazmundagi buyruq ma'nosi mavjud. Bunaqa misollarni adibning asarlaridan ko'plab keltirishimiz mumkin.

3.Ritorik so'roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so'roq yo'li bilan tasdiq mazmuni beriladi ( yashirin tasdiq). So'roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, ta'sirli qilib beradi.Yashirin inkor mazmuniga ega bo'lgan so'roq-inkor gaplar ritorik so'roq gapning bir ko'rinishidir.Ritorik so'roq gapda yashirin javob shu gapning o'zidan bilinib turadi.

Kimman o'zi? Nega odamlarga azob berishim kerak? Nima haqqim bor?.. Katta vijdotsizliklar kichkina nopoklikdan boshlanishini bilsam nima qilay axir? “ Ikki eshik orasi” asaridagi bu parcha ritorik so'roq namunasi, unda “ hech kim

emasman, hech qanaqa haqqim yo‘q” mazmunidagi yashirin inkor ma‘nolari ifodalangan.

“ Voy gapingiz qurmasin, ovsin, ona sutiya sotiladimi? Birovga yaxshilik qilib, ketidan tama qilgan odamning savobi gunohga aylanadi”, deydilar. “ Dunyoning ishlari” asaridagi bu gapda esa, “ ona suti sotilmaydi ” yashirin inkor ma‘nosi mavjud.

O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong orttirsas, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? “ Urushning so‘nggi qurboni ” hikoyasidagi bu gapda “o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bo‘lmaydi ” degan yashirin inkor ma‘nosi ifodalangan ritorik so‘roq gap.

Qachongacha qalbakilik qilamiz? Qachongacha yolg‘on-yashiq plan bajarib, bayroq olamiz? Shu uyda o‘zing yasharmiding noinsof ? Nega o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgalarga ravo ko‘rasan? “ Ikki eshik orasi” asaridagi bu parchada “ shu uyda o‘zing yashamasding ” yashirin inkor ma‘nosi ifodalangan ritorik so‘roq gap mavjud.

Odam bu dunyodan nima obketadi? “ Dunyoning ishlari ” asaridagi bu gap “odam bu dunyodan hech narsa olib ketolmaydi ” mazmunidagi ritorik so‘roq gapdir.

Qo‘yinglar endi, – dedi iltijoli ohangda. – Olgan bo‘lsa olgandir. Birovning qo‘lidan tutmagandan keyin nima deysiz? “ Dunyoning ishlari” asaridagi bu gap esa “ birovning qo‘lidan tutmagandan keyin hech narsa deyolmaysan” yashirin inkor mazmunidagi ritorik so‘roq gap.

Dunyoning ustuniman deb yurgan azamatlar o‘ylashga ham qo‘rqadigan haqiqatni masxaraboz aytmaydi deb o‘ylaysizmi? “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan bu gapda esa “ dunyoning ustuniman deb yurgan azamatlar o‘ylashga ham qo‘rqadigan haqiqatni masxaraboz ham ayta oladi” yashirin tasdiq ma‘nosi ifodalangan.

Axir odam umrbod unutilmaydigan, umrbod o‘zini kechirolmaydigan narsalar ham bo‘ladi-ku jahonda?! “ Ikki eshik orasi” asaridan olingan bu gapda ta‘kid, tasdiq ma‘nolari ifodalangan.

Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?! “ Urushning so‘nggi qurboni ” hikoyasi qahramoni Xadichaning bu ta‘nali gapida “ men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetadi ” yashirin tasdiq ma‘nosi mavjud.

Dunyoga kelib nima karomat ko‘rsatdik?! Ko‘prik soldikmi, machit qurdikmi?..

“ Dunyoning ishlari” asaridagi bu gapda “ dunyoga kelib hech qanday karomat ko‘rsatmadik” yashirin inkor ma‘nosi ifodalangan.

O‘tkir Hoshimov shunday yozgan: “ Shunday asarlar yozsangki, kitobxon uni o‘qiganda hamma narsani unutsa. Asar qahramonlari hayoti bilan yashasa.

Quvonsa, iztirob cheksa...” Bunday natijaga erishish yozuvchi uchun eng yuksak baxt bo'lsa kerak. O'tkir Hoshimovni mana shunday baxtga erishgan yozuvchi desak mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, uning asarlarini o'qish jarayonida voqealar rivojiga aralashib ketamiz. Asar qahramonlari quvonsa, quvonamiz, iztirob cheksa xafa bo'lamiz, yig'lasa yig'laymiz. Adibning asarlaridan keltirilgan yuqoridagi so'roq gaplar asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, qahramonlarning xarakterini, ichki dunyosini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: «O'qituvchi », 1995.
2. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi.–T.: «Universitet », 2014.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: «Fan», 2008.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.– T.: «Fan », 2007.
5. Yo'ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2007.

TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

SECTION 1. ARTICLES FROM CENTRAL ASIA

1.	<b>ISSUES OF RESPONSIBILITY FOR THE ILLEGAL CIRCULATION OF STRONG INFLUENCER OR TOXIC SUBSTANCES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN (ACCORDING TO THE CRIMINAL CODES OF THE UZBEKISTAN SSR OF 1926 AND 1959)</b> Khaydarov Mirsaid Mirdjabbarovich	4
2.	<b>TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISH</b> Davronova Mohigul Norpo'lat qizi	7
3.	<b>SURROGAT ONALIK SHARTNOMASINING HUQUQIY TABIATI (TEZIS)</b> Jamshid Abdullayev	12
4.	<b>EMOTSIYA, STRESS, VA SOG'LIQ</b> Avezov Olmos Ravshanovich, Shavkatova Shaxnoza Po'lot qizi	17
5.	<b>ADVOKAT-SHAXSNING HUQUQIY HIMYOYACHISI</b> Rayxon Ibragimova	21
6.	<b>ҚАШҚАДАРЁ ВА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТЛАРИДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚУЙИЛИШИ</b> Қалқон Чоршанбиев	25
7.	<b>THE ROLE OF TREATIES IN THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS TREATY-MAKING PRACTICE</b> Sherzod Toshpulatov	29
8.	<b>O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SO'ROQ GAPLAR LINGVOPOETIKASI</b> Yoqutjon Yoqubova	33